



## 2020- yilning yanvar-iyul oylarida Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejavchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2020- yilning yanvar-iyul oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2613,6  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



101,0 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari  
hajmining o'sish sur'atlari

98,9 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari hajmining o'sish  
sur'atlari

1881,9  
ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2613,6 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 270,2 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,0 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati	Hajmning oshishi	Hizmatlar hajmi
• 101,0 %	• 270,2mlrd. so'm	• 2613,6 mlrd. so'm

**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning iyul oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1,3 mlrd. so'mga kamaydi va atigi 354,4 mlrd. so'mga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 107,3 mlrd. so'mga o'sgan va 389,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil VI - diskret (iyun) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil VII – diskret (iyul) oyining hajmi 138,0 mlrd. so'mga kamaygan.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning VI va VII – diskret oylari o'rtasidagi farqi 10,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.





*Dastlabki ma'lumotlar*


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

	Hajmi, mlrd. So'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2613,6</b>	<b>101,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	130,6	114,8
Moliyaviy xizmatlar	713,4	136,3
Transport xizmatlari	424,4	101,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	414,9	100,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	67,2	73,8
Savdo xizmatlari	782,5	87,3
Ko,chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	62,8	85,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	103,0	112,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	39,7	89,1
Ijara xizmatlari	50,5	86,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	62,9	93,3
Shaxsiy xizmatlar	71,3	94,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	38,3	66,0
Boshqa xizmatlar	67,0	78,6


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil, moliyaviy xizmatlar 36,3 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmining mutloq o'sishiga ta'siri 2,0 % punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 14,8 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,2 % punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlar 12,5 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,1 % punkt). 2020- yilning yanvar-iyul oylarida jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati 101,0 % ni tashkil etdi.

## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga, xizmat turlari bo'yicha ta'siri, f.p



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining nisbatan pastligiga asosiy omil bo'lib savdo xizmatlarining 12,7 % ga (ularning salbiy ta'siri 0,8 punktga), boshqa xizmatlar 21,4 % ga (-0,1 punktga), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlari 26,2 % ga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 14,1 % ga, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 34,0 % ga, ijara xizmatlari 13,9 % ga pasayishi 0,1 punktga salbiy ta'sir ko'rsatdi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi 29,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlari (27,3 %), transport xizmatlar (16,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,0 %) qayd etildi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar-1,5 %, ijara sohasidagi xizmatlari - 1,9 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari 2,4 % hissasiga to'g'ri keldi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (36,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (14,8 %) va ta'lim sohasidagi xizmatlar (12,5 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (34,0 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (26,2 % ga), boshqa xizmatlar (21,4 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (14,1 % ga), ijara xizmatlari (13,9 %) , shuningdek, savdo xizmatlari (12,7 % ga) da pasayish kuzatildi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – 16,2 %.

**Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da**  
*(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)*

**55,2 %**



**Yuk tashish xizmatlari**

**44,8 %**



**Yo'lovchi tashish xizmatlari**

Transport xizmatlarida avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi 97,8 % tashkil etadi.

Yuk tashish, avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining salmoqli qismini egallaydi. 2020-yil yanvar-iyul oylarida avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarining ulushi 55,2 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchi tashish xizmatlari ulushi 44,8 % ni tashkil etdi.






*Dastlabki ma'lumotlar*

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2020- yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 29,9 % ni tashkil etib, bu 782,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


### Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismiga, aniqrog'i 83,3 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,8 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

### **Moliyaviy xizmatlar**

*(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)*

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 713,4 mlrd. so'mni - tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar xajmi 480,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 27,3 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi 20,5 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmning 233,0 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**




**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 36,3 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati 197,7 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da**  
*(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)*



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,5 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,2 % oralig'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,3 % ni tashkil etadi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, u eng zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)




2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan

2020- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 130,6 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 114,8 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da**  
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 99,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 0,1 %, boshqa aloqa xizmatlari – 0,1 %, noshirlik xizmatlari- 0,3 %, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar – 0,1 % dan tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

**Ta'lim sohasidagi xizmatlar**  
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

2020- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 103,0 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,0 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,5 % ni tashkil etdi.



**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**  
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 73,8 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 67,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 2,6 % ni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 88,3 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 11,7 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.



## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

*(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)*

2020- yilning yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 39,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,5 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 89,1 % ni tashkil etdi.




Xizmatlar hajmi	39,7 mlrd. so'm
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	89,1 %
Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi	1,5 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istaklariga qarab differensiyalanadi.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da

*(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)*



Xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 54,7 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Shuningdek, eng katta ulush Sh.Rashidov (11,6 %), Zomin (6,5 %), G'allaorol, Baxmal (5,3 %) va Do'stlik, Forish (2,9 %) tumanlariga qayd etildi.	Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Yangiobod (0,7 %), Zafarobod, Arnasoy (1,5 %), Mirzacho'l (2,0 %), va Zarbdor (2,3 %) tumanlari kuzatildi.
--	---

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi 55,7 % ni tashkil etgan.

Yangiobod tumanning ulushi esa eng past ekanligi – 0,8 % kuzatilgan.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1881,9 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,9 % ni tashkil etdi.



2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan

➤ Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

➤ Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra,  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni - 11166 birlikda

Ularning umumiy sonidagi ulushi - 57,9 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari - 113,9 %



**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi – 57,9 %, sanoat – 16,1%, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi – 15,7 % ga yetdi va atigi 10,3 % i qurilish hissasiga to'g'ri keldi.

**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (38,9%) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 10,7 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,4 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,8 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 9,8 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 34,7 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 11,0 %, tashish va saqlash - 6,0 %, axborot va aloqa – 1,9 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,5 % hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 43,9 % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1,4 mingtaga ko'paydi.


**Taqqoslash uchun:** 2019- yil 1- avgust holatiga ko'ra ularning soni 1,7 mingtaga ko'paygan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 27,6 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 0,9 mingtaga ko'paydi va 4,3 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi – 10,4 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 0,1 mingtaga ko'paydi va 1,2 mingtani tashkil etdi.

**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 71,5 % ga to'g'ri keladi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, ularning ulushi 68,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1246 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 7980 tani tashkil etdi va o'sishi esa 18,5 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 49,8 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxonalar va tashkilotlar sonining ulushi 50,0 % ekvivalentida qayd etildi.





*Dastlabki ma'lumotlar*

Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**Tel.: 72-221-51-27**